

JANUB RENESSANSI HAQIDA MULOHAZALAR

*Usmonova Dilyayra Rustamovna,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
o'zbek tili kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr Amerika adabiyotining yorqin vakili, Janub Renessansi davri adabiy va madaniy harakatining namoyondasi Uilyam Folkner ijodi haqida so'z boradi. Janub Renessansi davri AQShning janubidagi birinchi muhim adabiy harakat bo'lib, mintaqaning intellektual va madaniy turg'unligi haqidagi tanqidlarga javob bergan.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, Janub renessansi, Uilyam Folkner, harakat, adabiyot, madaniyat, tarix, an'ana.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЮЖНОМ РЕНЕССАНСЕ

*Усмонова Диляйра Рустамовна,
преподаватель кафедры узбекского языка
Ташкентского педиатрического медицинского института*

Аннотация. В статье рассматривается творчество Уильяма Фолкнера, выдающейся фигуры в американской литературе XX века и представителя литературного и культурного движения Южного Ренессанса. Южный Ренессанс стал первым значительным литературным движением на юге США, ответом на критику интеллектуальной и культурной стагнации региона.

Ключевые слова: Американская литература, Южный Ренессанс, Уильям Фолкнер, движение, литература, культура, история, традиция.

REFLECTIONS ON THE SOUTHERN RENESSANCE

*Usmonova Dilyayra Rustamovna,
The teacher of the department of Uzbek language
of Tahskent pediatric medical institute*

Abstract. This article discusses the work of William Faulkner, a prominent figure of the 20th-century American literature and a representative of the Southern Renaissance literary and cultural movement. The Southern Renaissance was the first significant literary movement in the southern United States, responding to criticisms of the region's intellectual and cultural stagnation.

Key words: American literature, Southern Renaissance, William Faulkner, movement, literature, culture, history, tradition.

Amerikaning taniqli yozuvchisi Uilyam Folkner (1897-1962) XX asrning birinchi yarmida Amerika janubida gullab-yashnagan Janub Renessansi davri adabiy va madaniy harakatining asosiy figuralaridan biridir. U o'z romanlari va qissalari orqali janub tarixi, an'analari va muammolarini chuqur o'rganib chiqdi, uni ushbu harakatning eng ta'sirli va taniqli ovozlariidan biriga aylantirdi.

Folknerning asarlari va uslubi Amerika adabiyoti rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U o'z asarlari orqali Janub madaniyatini, uning tarixi va an'alarini saqlab qolishga yordam bergan. Uning adabiyotga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etib, 1949-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Uilyam Folknerning yozuvchilik iste'dodi juda erta namoyon bo'lgan. Biroq uning yozuvchi sifatida tan olinishi, o'z yo'lini tanlab olishi oson kechmagan. Uilyam turli nashriyotlarga she'rlari va nasriy mashqlarini jo'natib, o'z kuchini sinab ko'rmoqchi bo'ladi, lekin hamma joydan bir xilda muloyim rad javobini oladi. Shundan so'ng Folkner Nyu-Yorkda o'z kuchini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Uning bu yirik shahardagi hayoti kitob magazinida sotuvchilikdan boshlanadi. Folkner unchalik yaxshi sotuvchi bo'lmasa-da, ajoyib kitobsevar edi.

Nyu-York Folkner uchun ajoyib hayot va ijod maktabi vazifasini o'taydi, u bu yerda Servantes, Dostoyevskiy, Tolstoy, Balzak, Dikens, Flober kabi daholar ijodi bilan tanishadi. Biroq ko'p o'tmay yana Missisipisiga qaytadi va turli kasblarda o'zini sinab ko'radi. Bank xizmatchisi, bo'yoqchi, xat tashuvchi bo'lib ishlaydi. Biroq bu sohalarning hech birida uzoq ishlolmaydi.

Folkner 1924-yilda mashhur yozuvchi Shervurd Anderson bilan tanishadi. Keyinchalik “yangi adabiy avlodning otasi” deb nom olgan bu yozuvchi bilan tanishuvi yangi Orleanning fransuz kvartali chorrahasida ro‘y beradi va bu voqea yosh, havasmand ijodkor hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Anderson yo‘l izlayotgan, hali hech kimga tanilmagan Folknerda o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi.

Folkner 1925-yilda keyinchalik unga ilk shuhratni keltirgan “Soldat sharafi” nomli romanini yozishga kirishadi. Yozuvchi bu asarida urushning tub mohiyatini ko‘rsatadi, urushning “vatanparvarlik”, “qahramonlik”, “muqaddas qurbonlar”, “harbiy shon-shuhrat” kabi chiroyli niqoblarini olib tashlaydi. Urush mohiyat e’tibori bilan “Chikago mushtlashuvlaridan farq qilmaydi, birgina farqi go’shtni bu yerda yerga ko‘madilar”. Mana shu fikr urushdan keyingi butun bir avlodning hayotiy xulosasiga aylanadi.

Yozuvchi asarlarining syujeti g‘oyatda rang-barang va xilma-xil, biroq o‘zining ta’kidlashicha: “mohiyat-e’tibori bilan umrim davomida faqat bir voqeani yozdim – dunyo va o‘zim haqidagi voqea” va shu orqali: “hayotning o‘zida ma’no bormi?” – degan savolga javob axtardi.

Folkner adabiyot olamiga o‘zi yaratgan xayoliy dunyoni olib kirdi va uni “Yoknapatofa” deb atadi. Hatto bu mamlakatning xaritasini chizib berdi, bu xarita “Avessalom, Avessalom!” romanining muqovasida aks etdi, o‘sha kezlarda millionlab nusxalarda tarqaldi. Folkner asarlarining qahramonlari shu mamlakatda hayot kechirganlar.

Folkner millatni ulug‘lash yo‘lini emas, shafqatsizlarcha o‘z-o‘zini tanqid qilish yo‘lini tanladi. Uning tanqidi millatga nisbatan chuqur va ulkan muhabbat bilan yo‘g‘rilgan. Folkner o‘sha kezlarda adabiyotda urf bo‘lgan oson yo‘ldan bormadi. Uning aybnomasi barcha ijtimoiy va iqtisodiy qatlamlarga, badavlat sinfga, boylarga ham va johil omi oq tanli kambag‘allar uchun xos bo‘lgan insoniy zaifliklarga ham qarshi yo‘naltirilgan edi. U irqiy kamsitishning fojeasini ochib beradi, irqiy o‘z-o‘zini yuqori qo‘yish nazariyasini ehtiros bilan fosh qiladi, huquqiy va davlat idoralarining munofiqliklarini ko‘rsatadi, diniy mutaassiblikning

besamarligini aks ettiradi. Folkner asarlaridagi eng asosiy mavzu alam va iztirob tasviridan iborat. U inson qalbining eng tuban tuyg'ularini ochib tashlaydi. Uning asarlarida jinoyat, shafqatsiz qonxo'rlik tasvirini ko'p uchratish mumkin. Yozuvchi ehtiroslarini o'zgalardan pinhon tutib, qat'iy nazorat ostidan o'tkazib yuzaga chiqarmaydi, ularni oxiriga qadar, to'laligicha otilib chiqishlariga yo'l qo'yib beradi. Ko'p hollarda qahramon o'limi oldidan, so'nggi daqiqalarda achchiq hayot tajribasidan umrini besamar yashab o'tganligini anglab yetadi.

Folkner o'ylab chiqargan xayoliy mamlakat Yoknapatofani shimoliy Missisipining eski xaritasidan topib oldi, Yoknapatofa yerli hindularning Chikeso qabilasi tilida "voha bo'ylab tinch oqayotgan suv" ma'nosini anglatadi. Bu boshi va oxiri bo'lmagan hayot daryosi timsolidir.

Zamondoshlari tomonidan Folkner ijodi turlicha baholangan, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Ko'plab adabiyotshunos-tanqidchilar Folkner amerikaliklarga olijanob, sog'lom fikrli va nihoyat darajada jo'n, zerikarli provinsializmning biqiq muhitini yorib chiqishlarida ko'maklashadi, deb hisoblaydilar. Yana boshqa tanqidchilar, uni hayotni qora rangda tasvirlashda aybladilar, o'zlarini yozuvchi asarlari ko'zgusida ko'rishni istamadilar. Ko'plarga uning ijodiy uslubi va falsafiy xulosalari yoqmas edi. Kafedra minbarlari va matbuot orqali yillar davomida uning ijodini qoralaganlar. Qadrdon shtatida uzoq davrlar uning san'ati va siyosiy qarashlarini anglab yetmaganlar.

Folkner ijodi atrofidagi bahs-munozaralar barchaning diqqat markazida turgan, uning har bir yangi asari tanqidchilar nazaridan chetda qolmagan. Uning nomi Yevropa va Amerikada keng shuhrat qozona boshlagan. Biroq Folkner moddiy muhtojlikda yashar, asarlari uchun olgan qalam haqi oldingi qarzlarini uzish uchun bazo'r yetardi. Shunday vaziyatda Folknerga Gollivudning nazari tushdi. Folkner uchun Gollivud cheksiz imkoniyatlar, shon-shuhrat kaliti edi. Biroq, yozuvchi Gollivudga kelgach, unga turlicha shartlar qo'yadilar va Folkner o'zi qadrlagan erkinlikni yo'qota boshlaydi.

Yozuvchi oldida darhol to'siqlar paydo bo'ladi. U asarining ssenariysini o'z rejasi bo'yicha emas, balki talablar ko'ra yozishi kerak bo'ladi. Folknerda shartnomani yirtib tashlab, Gollivuddan bosh olib ketish istagi paydo bo'ladi, biroq pul juda zarur edi: otasi vafot etgani bois butun oilani boqish uning zimmasida edi. Folkner ma'lum muddat o'z ijodiy faoliyatini jilovlashga majbur bo'ladi. Folkner bunday vaziyatga uzoq chidab tura olmaydi va oilasi bilan yana qadrdon Missisipiga qaytadi.

Folknerning shuhrati kun sayin ortib boradi. Fransiya uni Hurmat legioni ordeni bilan taqdirlaydi, vatanida ham uni qadrlay boshlaydilar. San'at va adabiyot instituti va Adabiyot akademiyasi uni a'zolikka qabul qiladi. Keyinroq esa eng yaxshi adabiy asar uchun Milliy Mukofot bilan taqdirlandi. Ijodkor 1950-yilda "Zamonaviy amerika romanini rivojlantirish yo'lidagi buyuk va o'ziga xos ijodiy hissi uchun" Nobel mukofotiga sazovor bo'ladi. So'ngra Folknerning mashhur nutqi tinglanadi. Aytishlaricha, yozuvchining ovozi zo'rg'a eshitganlar. Lekin ertasiga ro'znomalarda e'lon qilingan bu nutq barchada juda kuchli taassurot qoldirgan.

Zabardast yozuvchi 1962-yilning 7-iyulida bu olamni tark etadi. Ijodkor o'limidan keyingi shon-shuhratiga beparvo qarar, hatto bu haqida o'ylamas edi. Biroq Folkner o'zidan keyin chuqur va o'chmas iz qoldirib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov X. Jahon adabiyoti. Darslik. – Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2023. – 558 b.
2. Isakova G.N., Bobonazarova G.T. Ingliz adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Zamon poligraf", 2025. – 282 b.
3. XX asr jahon adabiyoti: hikoyalar. Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi U.Jo'raqulov, nashrga tayyorlovchi U.Bo'tayev. – Toshkent, 2009.
4. G'ulomov A. Adabiyotshunoslik va tafakkur. – Toshkent: "O'zbekiston kitob nashriyoti", 2018.